

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

4-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 4 (6) – 2026

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahammatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdulkaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Sulaymanova Dildora Nazarovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Махмудова Нигора Баротовна</i> ИСТОРИЧЕСКИЙ ОБЗОР ПЕНИТЕНЦИРНОГО ДЕЛА В КОЛОНИАЛЬНОМ ТУРКЕСТАНСКОМ КРАЕ, ПО ОТЧЁТАМ РЕВИЗИИ СЕНАТОРА К.К.ПАЛЕНА	10-15
<i>Esonov Ziyodbek Yuldashevich</i> RISHTON KULOLCHILIK MAKTABI VA UNING LOKAL XUSUSIYATLARI ETNOGRAFIK TAHLILI	16-20
<i>Абдиев Рузикул Буронович</i> ИСТОРИКО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ СОХРАНЕНИЯ АРХИТЕКТУРНОГО НАСЛЕДИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	21-27
<i>Абдужаббаров Шерзод</i> ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ, ФУНКЦИИ И ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ СУЩЕСТВОВАНИЯ И РАБОТЫ СОВЕТА ТУРКЕСТАНСКОГО ГЕНЕРАЛ-ГУБЕРНАТОРА	28-33
<i>Boymurodov Shuxrat Toshkentovich</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'RTA MAXSUS TA'LIM, SOHASIDA MA'NAVIY YANGILANISH	34-38
<i>Жураева Нафиса Олимовна</i> ТОПОГРАФИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ КУЛЬТОВЫХ СООРУЖЕНИЯХ НА ФОРМИРОВАНИЕ ГУЗАРОВ ГОРОДА БУХАРЫ	39-45
<i>Safarov Akmal</i> SUV XO'JALIGI SOHASI UCHUN MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	46-52
<i>Tursunova Mahliyo Sarvar qizi</i> XORIJIIY INVESTITSIYALAR ISHTIROKIDAGI KORXONALAR FAOLIYATINING HUDUDIIY IJTIMOIIY-IQTISODIIY HAYOTGA TA'SIRI (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA, 1991- 2026 -YILLAR).....	53-57
<i>Mardiyeva Guzal Karimovna</i> SAMARQAND VILOYATIDA SOVET DAVRINING DASTLABKI YILLARIDA XOTIN-QIZLARINING OLIY TA'LIMGA KIRISH IMKONIYATLARI VA CHEKLOVLAR	58-62
<i>Kenjayev Elyor Sattorovich</i> YANGI O'ZBEKISTONNI BARPO ETISHDA STRATEGIK ISLOHOTLAR: TARAQQIYOT VA MA'NAVIY YUKSALISH UYG'UNLIGI	63-70
<i>Polvonov Kozimbek Naimovich, Polvonov Anvar Naimovich</i> QASHQADARYODAGI YETAKCHI O'QUV DARGOHLARIDAN BIRI	71-79
<i>Mo'minova Gavxar Esanovna</i> O'ZBEKISTON SAVDO TARIXINI O'RGANISHDA DAVLAT ARXIVLARI HUJJATLARINING O'RNI	80-85
<i>Norboyev Sarvar Qahramon o'g'li</i> O'ZBEKISTON TARIXIIY SHAHARLARINING XALQARO MIQYOSDA TAN OLINISHI	86-90

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Tillabaeva Umida Makhsumovna, Talipova Nigora Tulkunovna</i> DIGITALIZATION AND EMPLOYABILITY: A BIBLIOMETRIC ANALYSIS OF RESEARCH TRENDS (2018–2025)	91-100
<i>Xudoyorov Lochinbek Bahromovich</i> O'ZBEKISTON SERVIS SOHASIDA XIZMATLAR SIFATI KO'RSATKICHLARINING DINAMIK TAHLILI	101-107
<i>Toxirov Akbarxon Toirxon o'g'li</i> INNOVATSION MARKETING INDEKSI ASOSIDA KORXONALARNING IQTISODIY XAVFSIZLIGI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASI	108-113
<i>Ismoilov Bekzod Muxidinovich</i> GLOBALLASHUV SHAROITIDA TURIZM SOHASINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI	114-118
<i>Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich</i> O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK MUAMMOLARNING IJTIMOIIY-IQTISODIY OQIBATLARI KELIB CHIQISHI	119-135
<i>Nishonova Shaxnozaxon</i> ZAMONAVIY IQTISODIY TIZIM SHAROITIDA LOYIHALARNI BOSHQARISH YONDASHUVLARI	136-140
<i>Fayziyeva Aziza Azamat qizi</i> SURXONDARYO VILOYATIDA KICHIK TADBIRKORLIK FAOLIYATINING BANDLIK KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI: ARIMA MODEL ASOSIDA PROGNOZ VA TAHLIL	141-154

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Ismoilov Maxamadixon Isroilovich</i> IQTISODIY RATSIONALIZM: TUSHUNCHA, EVOLYUTSIYA VA NAZARIY CHEGARALAR.....	155-165
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> O'ZBEKISTONDA KASABA UYUSHMALARINING IJTIMOIIY ADOLATNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI	166-175
<i>Obidov Asliddin Shavkatovich</i> SAID AD-DIN AL-FARG'ONIY TA'LIMOTIDA ONTOLOGIK VA GNOSEOLOGIK ASOSLAR	176-181
<i>Abduraxmov Xasan Ibroximovich</i> KOGNITIV-AXBOROT MUHITINING SUN'IY INTELLEKT SHAROITIDA YOSHLAR IJODKORLIGI VA TASHABBUSKORLIGIGA TA'SIRI.....	182-188
<i>Xolova Umida Umedovna</i> "O'RTA ASRLAR FALSAFIY TAFAKKURIDA MA'RIFAT KONSEPSIYASINING TARIXIY-FALSAFIY EVOLYUTSIYASI: TEOLOGIK VA MA'RIFIY BOSQICHLAR TAHLILI"	189-192
<i>Rajabova Rohila Zakirovna</i> AHMAD DONISH'S PHILOSOPHICAL VIEWS IN HIS WORK "NAVODIR UL-VAKOE"	193-197
<i>Kabulov Jahongir Bakhodirovich</i> SEPARATIZMNING ASIMMETRIK XUSUSIYATI.....	198-202
<i>Eshkuvvatov Jaloliddin</i> MADANIYATLARARO MULOQOTDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR SINTEZI..	203-210

Jomuradov Ikrom Ilxom o'g'li
IMMANUIL KANT VA ZAMONAVIY FALSAFADA NOUMENAL ERKINLIK MUAMMOSI:
FENOMENAL DETERMINIZM BILAN BOG'LIQ ANTINOMIK ZIDDIYATNING DOLZARB
TALQINLARI..... 211-215

Rustamova Madina
OMMAVIY MANIPULYATSIIYANING DESTRUKTIV XUSUSIYATI:
TAHDIDLAR VA OQIBATLAR..... 216-220

Yodgorov Alisher Nurmuhammadovich
AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA IJTIMOYIY MUNOSABATLARNING
TRANSFORMATSIIYASI..... 221-225

10.00.00 - FILOLOGIYA FANLARI

Isanova Feruza Tulqinovna
O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA XALQARO HUQUQ TERMINOLOGIYASINING
GIBRID TABIATI: SHAKLLANISH MANBALARI, STRUKTUR-SEMANTIK
XUSUSIYATLARI VA FUNKSIONAL TAHLILI 226-232

Rahmatov Laziz, Baxronova Dilrabo
ABYA YALA (LOTIN AMERIKASI) DAVLATLARI NOMLARINING
LINGVOPOLITIK DISKURSI: ETIMOLOGIK VA GEOSIYOSIY TAHLIL 233-241

Quvvatova Shaxlo Choriyevna
XOLID HUSAYNIYNING "MING QUYOSH SHU'LASI" ASARI TAHLILI..... 242-246

Elmuratova Zamira Xodjamuratovna
NAQLLAR VA MAQOLLARNING FOLKLOR JANRIDAGI ROLI..... 247-251

12.00.00 - YURIDIK FANLAR

Shayzakov Shodiyor Ibragimovich
QONUNIIY KUCHGA KIRMAGAN SUD HUJJATLARI USTIDAN APELLYATSIYA
TARTIBIDA SHIKOYAT QILISHNING PROTSESSUAL-HUQUQIY ASOSLARI..... 252-261

Umarova Xolisxon Nomoz qizi
O'ZBEKISTONDA RAQOBATGA QARSHI KELISHUVLAR HAQIDA XABAR BERGANLIK
UCHUN JAVOGBARLIKDAN OZOD QILISH VA JARIMALARNI KAMAYTIRISH TIZIMINI
TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI..... 262-269

Аминова Наргиза
ОТ СЕКУЛЯРИЗМА К ПОСТСЕКУЛЯРНОСТИ:
МОДЕЛИ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ РЕЛИГИОЗНОГО И СВЕТСКОГО
В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ 270-277

Amirov Agzamxon Aktamovich
QURILISHDA ULUSHLI ISHTIROK ETISH TUSHUNCHASINING TAHLILI..... 278-283

Mamatmurodov Farrux Farxod o'g'li
SUKUKNING NAZARIY POYDEVORI HAMDA TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI:
ZAMONAVIY KAPITAL BOZORIDAGI O'RNI..... 284-294

Kabilov Sardor Asrolovich
JINOIY JAVOGBARLIKDAN OZOD QILISH TURLARI VA UNING HUQUQIY ASOSLARI 295-300

<i>Nosirov Bekzod O'ktam o'g'li</i> ETIL SPIRTI, ALKOGOL VA TAMAKI MAHSULOTLARINI VOJXONA CHEGARASIDAN NOQONUNIY OLIB O'TISH	301-304
<i>Sabirova Kuvanchay Babamuratovna</i> ГЕНДЕРНОЕ НАСИЛИЕ, УСИЛЕННОЕ ИСКУССТВЕННЫМ ИНТЕЛЛЕКТОМ: ВЫЗОВЫ МЕЖДУНАРОДНОМУ ГУМАНИТАРНОМУ ПРАВУ И ПРОБЕЛЫ В ПРАВОВОМ РЕГУЛИРОВАНИИ	305-310
<i>Urinboyeva Muxlisa Ma'rufovna</i> MEDIATSIYA INSTITUTIDA SUN'IY INTELEKT IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH MASALALARI	311-318
<i>Majidov Islomjon Dilshod o'g'li</i> YAQIN QARINDOSHLAR BILAN BOG'LIQ HOLATLARDA TRANSPORT VOSITALARI HARAKATI YOKI ULARDAN FOYDALANISH XAVFSIZLIGI QOIDALARINI BUZISH JINOYATLARINI KVALIFIKATSIYA QILISHDA INSONPARVARLIK PRINSIPINI QO'LLASH MASALALARI	319-325
<i>Habibullayev Muhammadrajab Obidjon o'g'li</i> HUQUQ VA IMKONIYATLAR MUVOZANATI: O'ZBEKISTONDA GENDER ADOLAT SARI YO'L.....	326-331
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Qurbonova Dilafroz Toshturdiyevna</i> TEMURIY MALIKALAR MA'NAVIY MEROSINING TARIXIY, ILMIY-ADABIY MANBALARDAGI TALQININI TALABA-QIZLARGA O'RGATISH	332-337
<i>Tursunaliyev Shaxzod Sherali o'g'li</i> SUMMATIVE ASSESSMENT AS A CONTEXT FOR DEVELOPING STUDENTS' CRITICAL THINKING COMPETENCE: THE PROBLEM DIMENSION	338-344
<i>Abdullayeva Surayyo Ashrafxonovna</i> AUTISTIK SPEKTR BUZILISHLARIGA EGA BOLALAR TA'LIMI VA TARBIYASINING TARIXIY SHAKLLANISHI HAMDA IJTIMOYIY ASOSLARI	345-354
<i>G'affarova Dilfuza Shavkat qizi</i> TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI.....	355-360
<i>Turdimuratov Dilmurad Yuldashevich</i> THE IMPACT OF VOLITIONAL QUALITIES OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS ON THE DEVELOPMENT OF BEHAVIORAL RESPONSES ENSURING EFFECTIVE SPORTS PERFORMANCE.....	361-367

Received: 16 March 2026

Accepted: 01 April 2026

Published: 15 April 2026

Article / Original Paper

“THE HISTORICAL-PHILOSOPHICAL EVOLUTION OF THE CONCEPT OF ENLIGHTENMENT IN MEDIEVAL PHILOSOPHICAL THOUGHT: ANALYSIS OF THEOLOGICAL AND INTELLECTUAL STAGES”

Kholova Umida Umedovna

Bukhara State University,
Department of Islamic History and Source Studies,
Lecturer, independent researcher

Abstract. This article examines the historical and philosophical evolution of the concept of “enlightenment” within medieval philosophical thought. The study analyzes the ideas of enlightenment and enlightener thought in social, religious, philosophical, and ethical contexts, highlighting their gradual historical development. In the first stage, “enlightenment” is interpreted within a theological and spiritual framework, emphasizing the human heart and spiritual perfection. In the second stage, the concept is considered as a form of intellectual, scientific, and philosophical development.

Keywords: Middle Ages, philosophical thought, enlightenment, enlightener thought, theological stage, intellectual stage, tariqa, Ma’rifatullah, heart, theocentric doctrine.

“O’RTA ASRLAR FALSAFIY TAFAKKURIDA MA’RIFAT KONSEPSIYASINING TARIXIY-FALSAFIY EVOLYUTSIYASI: TEOLOGIK VA MA’RIFIY BOSQICHLAR TAHLILI”

Xolova Umida Umedovna

Buxoro davlat universiteti, Islom tarixi va manbashunosligi,
falsafa kafedrası o’qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi
E-mail: umidaxonxolova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O’rta asrlar falsafiy tafakkurida “ma’rifat” konsepsiyasining tarixiy-falsafiy evolyutsiyasi tadqiq etiladi. Maqolada ma’rifat va ma’rifatparvarlik g’oyalari ijtimoiy, diniy, falsafiy va axloqiy kontekstda o’rganilib, ularning tarixiy rivojlanish jarayoni bosqichma-bosqich tahlil qilinadi. Birinchi bosqichda “ma’rifat” teologik va ruhiy tafakkur doirasida talqin qilinib, inson qalbi va ruhiy kamolotga urg’u beriladi. Ikkinchi bosqichda esa konsepsiya ilmiy, aqliy va falsafiy rivojlanish sifatida ko’rib chiqiladi.


Kalit so’zlar: O’rta asrlar, falsafiy tafakkur, ma’rifat, ma’rifatparvarlik, teologik bosqich, ma’rifiy bosqich, tariqat, Ma’rifatulloh, qalb, teosentrik ta’limot.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I4Y2026N25>

Kirish. O’rta asrlar tarixiy jarayonlarda “ma’rifat” tushunchasi va ma’rifatparvarlik g’oyalari bir xil mazmunda qolmagan, balki tarixiy davrda mazmunan boyib, bosqichma-bosqich takomillashib borgan murakkab ijtimoiy-falsafiy kategoriya sifatida namoyon bo’ladi. O’rta asrlarga kelib, “ma’rifat” konsepsiyasi turli xil mazmunlarda talqin qilina boshlandi. Bu davrga kelib, “ma’rifat” tushunchasi aql va ilmiy tafakkurga asoslangan rivojlanish sifatida falsafiy jihatdan talqin qilinadi, ikkinchi tomondan esa tasavvufiy jarayon sifatida qalb va ruhiy kamolot darajasi sifatida izohlanadi. Natijada “ma’rifat” konsepsiyasi diniy g’oyadan kengayib,

falsafiy, axloqiy jihatlarni o'zida mujassam etgan ko'p qatlamli ijtimoiy-falsafiy kategoriya sifatida shakllandi. Ma'rifat g'oyasi qanday mazmun – mohiyatni kasb etsa, ma'rifatparvarlik ham shu talqin asosida shakllanadi. Shunga asoslanib, O'rta asrlar va Renessans davri falsafasida ma'rifat va ma'rifatparvarlik g'oyalarini ikki tarixiy – falsafiy bosqich asosida o'rganish tavsiya etiladi :

1. Teologik — ruhiy bosqich.
2. Renessans ma'rifiy bosqich.



O'rta asrlar falsafasining o'ziga xos xususiyatlaridan biri, bu davrda asosiy markazda inson va uning aqliy salohiyati, ruhiy holati ilohiylik g'oyalari bilan chambarchas bog'liq holda bo'lgan va teosentrik asosda shakllangan davrini ifodalaydi. Tasavvuf (Tasawwuf) — Islomning botiniy yoki ichki (**bāṭin**) jihatini ifodalovchi ta'limot bo'lib, u zohiriy yoki "tashqi" (**ẓāhir**) Islomdan farq qiladi. Qanday qilib ilohiy yoki ruhiy haqiqatlarni bevosita mushohada qilish ularni insoniy tartibda ifoda etuvchi qonunlarni bajarishdan farq qilsa, tasavvuf ham xuddi shunday tarzda insoniyat taraqqiyotining muayyan bosqichiga xos shart-sharoitlar bilan bog'liq holda ajralib turadi. Tasavvuf esa o'z maqsadini o'zida mujassam etadi: u abadiy haqiqatni bevosita bilish imkonini beruvchi yo'l sifatida namoyon bo'ladi.[1;19]

Tasavvufda "ma'rifat" insonni o'z "men"idan ozod qilib, uni ilohiy haqiqat bilan birlashtirish jarayonini bildiradi. Bu g'oya keyinchalik G'arbdagi Renessans tafakkuriga ham bevosita ta'sir ko'rsatgan, chunki tasavvufda inson markaziy o'ringa chiqadi, ammo bu markazlik Allohdan uzoqlashish emas, balki Uning mohiyatini o'zida aks ettirish orqali amalga oshadi. Tasavvufiy tafakkur tizimida ma'rifatulloh eng oliy maqsadlardan biri sifatida qabul qilingan. Shu nuqtai nazardan, u tasavvufiy tafakkur tizimining markaziga joylashtirilgan va uning terminologiyasi hamda konseptual tuzilishi asosan shu atrofda shakllangan. Chunki tasavvufning asosiy maqsadi – ma'rifat, ya'ni Allohni bilish va tanishdir. Ya'ni, tasavvufda asosiy maqsad Ma'rifatullohdir.[2;748]

Shuningdek bu davrda asosiy, mustaqil substansiya Alloh (Xudo) bo'lib, insonning kamol topishida, ruhiy va axloqiy mukammallashuvida asosiy o'rinni egallaydi. Chunki, teosentrik ta'limotga ko'ra, borliq, inson va butun olam markazida Xudo turadi va Xudoni asosiy manba, yaratuvchi shuning bilan birga yakuniy sababchi sifatida talqin qilinadi.

G'arb tafakkurida “epistemologiya” deb yuritiladigan, ya’ni “inson bilimni qaysi manbalardan oladi?” degan savolga javob izlash faoliyati Islom ilmiy an’analarida “asbobi ilm” (ilm manbalari) nomi ostida muhokama qilinadi.

Islom olimlari nazarida bilimning uch asosiy manbai mavjud:

1. Sog'lom sezgi a'zolari,
2. Sodiq xabar (vahiy),
3. Aql.

Mutasavviflar esa bu manbalarga yana birini — **ko'ngil (qalb)**ni ham qo'shganlar. Ularning ta'kidlashicha, riyozat va mujohada orqali poklangan, kin, hasad, kibr va riyo kabi ma'naviy illatlardan xalos bo'lgan qalb ilohiy haqiqatlarni qabul qiluvchi va ularni aks ettiruvchi manbaga aylanishi mumkin.[3;39]

Aql orqali olingan bilim qanchalik e'tiborli va asosli bo'lsa, qalb orqali hosil bo'lgan bilim ham kamida shunchalik e'tiborlidir. Ushbu bilim **ma'rifat, kashf** va **irfon** nomlari bilan ataladi. Shu bois o'rta asr teologik — ruhiy bosqichi davridagi ma'rifat tushunchasi – inson ongi va aqlining holati emas, balki ilohiy haqiqatni anglash diniy yo'l bilan amalga oshirilishi, qalbni poklash va ruhiy mukammallashish yo'li sifatida ifodalanadi. Bu davrga kelib, inson haqiqatni anglash manbasi aql emas, qalbg ko'chadi.

Adabiyotlar tahlili. Ayniqsa, bu davr ma'rifatparvarlik g'oyalari ko'proq tasavvuf ta'limoti bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilinadi. Sufiylar uchun haqiqiy ma'rifat — bu inson qalbida Alloh nurining akslanish jarayonidir. Al-G'azzoliy, Ibn Arabi, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband singari mutasavviflar ilmni nafaqat zohiriy bilim, balki “ma'rifatullāh” — Allohni qalb orqali tanish darajasiga ko'tardilar va shu bilan birga ma'rifat qalb orqali akslanadi degan tushunchani ilgari surdilar. Abu Homid G'azzoliy ma'rifatga quyidagicha ta'rif bergan: “Ma'rifat” so'zining istilohiy ma'nosi maxsus lug'at kitoblarida “Yaratuvchini tanimoq, anglamoq” deya ta'riflangan. Hikmatga ko'ra, Yaratuvchini tanish o'zini maqsadi Haqni tanish bo'lgan inson avval o'zini tanimog'i lozim.[4;3] Ibn Arabiy aytadiki, Xudo haqida ham aql tili bilan gapirish mumkin, lekin aql kuchi bilan Uni bilish mumkin emas. Aql isbotni talab qiladi, dalil – tajriba bilan ish ko'radi. Vaholanki, Xudoning borligi, zotu sifatlarini dalil orqali isbotlash mushkul. «Ma'rifat Haq tomonidan yuboriladi. Bu mening fikrim emas, balki ilohiy ilhomdir», deb yozadi Ibn Arabiy.[5;]

Shu nuqtai nazardan tasavvufda ma'rifat ta'limotning markazida turadi va barcha amallar ma'rifatga erishishga qaratilgan. Sufiylar Ma'rifatullohga erishishning turli ruhiy – amaliy yo'llarini, usullarini ishlab chiqqan hamda insonni oliy tafakkuri orqali haqiqatni tushunishga undagan. Ma'rifat — bu Alloh tomonidan sufiylarga berilgan bilimdir. Ma'rifatga erishishda ikki jihat alohida e'tiborga molikdir: axloqiy poklanish va Allohning irodasiga taslim bo'lish. [6;3]

Shunday qilib, o'rta asr va Renessans davri falsafasida ma'rifatparvarlik g'oyalarining teosentrik tavsifi, Islom falsafasi va tasavvufda o'zining eng yuksak darajasidagi ifodasini topgan. Bu tizimda ma'rifat — ruhiy jihatdan yuksalish, aql va qalb uyg'unligi, ilohiy haqiqatni idrok etish vositasi sifatida qaraladi. Shunday qilib, islom falsafasi va tasavvuf o'rta asr insonining ma'rifatga intilishi, uni ichki poklanish va ilohiy haqiqat bilan birlashish jarayoni sifatida talqin etgan bo'lib, bu yondashuv keyingi Renessans davri ma'naviy uyg'onishiga ham nazariy zamin yaratgan.

Muhokama. IX asr boshlariga kelib tasavvufning nazariy asoslari ishlab chiqildi, soʻfiylarning amaliy, ruhiy-psixologik mashqlari, oʻzini-oʻzi tarbiyalash va chiniqtirish tadbir-usullari shakllandi, **tariqat, maʼrifat, haqiqat** degan tushunchalar yuzaga kelib, tasavvufning ushbu uch qismiga oid qarashlar majmui tuzildi — tasavvuf alohida ilm sifatida qaror topdi. Soʻfiylar dastlabki paytlarda tasavvufni nuqul siru asror, tushuntirib boʻlmaydigan holatlar, «iboraga kelmaydigan ishoratlar» deb hisoblagan boʻlsalar, bora-bora bu holatlar haqida fikr-mulohazalar bayon qilina boshlandi, soʻfiyini tarbiyalash vazifasi, pir-muridlik qoidalari, odobini yaratish zarurati tugʻdirdi.[7;22]

Tasavvuf insonning maʼnaviy kamolotga erishish yoʻlidir. Bu yoʻl toʻrt qismga ajraladi:

1. Shariat (maʼnaviy komillikning ilk bosqichi)

2. Tariqat (yoʻl, tasavvufning amaliy qismi). U albatta ustoz (pir, murshid) bilan egallanadi.

3. Maʼrifat (bilmoq, bu bosqichga erishgan zohid dunyoning hamma jismida, har bir voqea-hodisada Olloh irodasini, uning sifatlarini koʻra oladi. Ammo bu hali oʻzlashtirishning aql bilan bogʻlangan bosqichi).

4. Haqiqat (tasavvufning eng yuqori – oliy bosqichi).

Demak, oʻrta asr va Renessans davri falsafasida maʼrifatparvarlik gʻoyalari teosentrik tavsifi, Islom falsafasi va tasavvufda oʻzining eng yuksak ifodasini topgan. Bu tizimda maʼrifat — ruhiy yuksalish, aql va qalb uygʻunligi, ilohiy haqiqatni idrok etish vositasi sifatida talqin qilinadi. Shunday qilib, islom falsafasi va tasavvuf oʻrta asr insonining maʼrifatga intilishi, uni ichki poklanish va ilohiy haqiqat bilan birlashish jarayoni sifatida talqin etgan boʻlib, bu yondashuv keyingi Renessans davri maʼnaviy uygʻonishiga ham nazariy zamin yaratgan. Maʼrifatullohning qadriyatini chuqur anglagan sufiylar uni egallash yoʻlida katta saʼy-harakatlar qilganlar. Ular maʼrifatni Allohning bandasiga ato etgan inʼom va neʼmati sifatida baholashgan boʻlsalar-da, bu murakkab yoʻlda insonning saʼy-harakat va irodasining ham nihoyatda muhim ekanligini yaxshi tushunganlar. Shu sababli ular Maʼrifatullohga erishish uchun intilishgan. Buning uchun avvalo qalblarini dunyo chang-chirgʻidan tozalashga kirishgan, chunki pok boʻlmagan qalb toza narsalarning qarorgohi boʻla olmaydi. [8;750] Bu davrga kelib insonlar ruhan poklanishga, qalbini isloh qilishga, shuning bilan birga nafsni tarbiyalashga eʼtibor qarata boshladi. Bu davrning oʻziga xos xususiyatlardan biri, maʼrifat tushunchasi orqali inson oʻzini anglab, bu gʻoyalarni tarqatish vazifasini ham bajargan.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Titus Burckhardt. Introduction to Sufi doctrine. Canada. World wisdom. P.19
2. Asuman ÜNAL ÖZCAN. TASAVVUF'TA MÂRİFETULLAH ANLAYIŞI. Eurasian Journal of Researches in Social and Economics (EJRSE). <http://www.asead.com/>. S.748.
3. MUSTAFA KARA. Tasavvuf ve tarikatlar. Yeni yüzyıl – kitaplığı.S.39.
4. A.H.Gʻazzoliy. Ihyou ulumid din. T. Matbaachi. 2024. B.3
5. [Najmiddin Komilov. Tasavvuf. Maʼrifat va haqiqat | Xurshid Davron kutubxonasi](#)
6. Yakup Pekdoğru. Bir Bilgi Olarak Sûfilerin Marifet Anlayışı. ilmî ve akademik araştırma dergisi 47.2021, s. 339-358. S.3.
7. Komilov N. Tasavvuf. Movorounnahr. T – 2009. B. 22.
8. Asuman ÜNAL ÖZCAN. TASAVVUF'TA MÂRİFETULLAH ANLAYIŞI. Eurasian Journal of Researches in Social and Economics (EJRSE). <http://www.asead.com/>. S.750

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 4 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).